

Surxondaryoda barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy jarrohlik markazi quriladi



Surxondaryoda barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy jarrohlik markazi quriladi. Bugun, 19 yanvar kuni Termiz shahridagi "Imom At-Termiziy" ilmiy tadqiqot markazining majlislar zalida viloyat hokimi To'ra Bobolovning tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida viloyat hokimi joriy yilning investitsiya dasturi doirasida Termiz shahrida barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy jarrohlik markazini qurish ishlari boshlanishi to'g'risida ma'lum qildi.

200 nafardan ortiq tibbiyot xodimlari ishtirok etgan uchrashuvda viloyat rahbariga sohadagi mavjud muammolar bayon qilindi. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan viloyatda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish bo'yicha takliflar berildi.

Ochiq muloqotda ko'tarilgan masalalarni hal etish yuzasidan vakolatli davlat idoralariga muddat belgilanib, nazoratga olingan holda topshiriqlar berildi.

